



TAKFIR MASALASIGA MOTURIDIYA TA'LIMOTINING AQLIY VA NAQLIY RADDIYALARI

Iqboljon Qambarov Akromjon o'g'li

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom institutining Islom ilohiyoti, falsafasi va Moturidiylik ta'limoti mutaxassisligi bo'yicha 1-bosqich magistranti.

KIRISH

Gunohkor bandalariga mo'minlar deb nido qilgan Alloh Taologa hamdu sanolarimiz, gunoh qilgan ummatlarini ham jannatga kirishini bashoratini bergan Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga durudu salovatlarimiz bo'lsin.

Har bir voqea va holatning o'ziga xos sababi bo'ladi. Qadimda bo'lganidek hozirda ham **diniy ta'limotlarning noto'g'ri talqin qilinishining** asosiy sababi shubhasiz, **johillik va bilimsizlikdir**. Ana shunday bilimsizlikning eng xavfli ko'rinishlaridan biri - **gunoh sababli insonni kuforda ayblashdir**.

Bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida **“jihad” shiori ostida sodir etilayotgan qon to'kishlarning** zamirida ham aynan shu xato yondashuv yotadi. Chunki islom ta'limotida musulmonning qoni, moli va obro'si harom hisoblanadi. O'zini musulmon deb bilgan inson bunday muqaddas chegarani o'zbilarmonlik bilan buzishga jur'at qilolmaydi. Biroq, bunga o'ziga asos topish uchun avvalo qarshisidagi insonni **kofirga chiqaradi**, so'ng esa uning qonini o'zicha “halol” deb bilib, “jihad” shiori ostida qotillik va boshqa jinoyatlarni sodir etadi.

Bunday xatti-harakatlarni **jismoniy tazyiq yoki kuch bilan to'xtatish** deyarli imkonsizdir. Chunki bu kabi zo'ravonliklar ko'pincha aks ta'sir ko'rsatib, shaxs o'z noto'g'ri yo'lini “to'g'ri” deb bilishida yanada qat'iylashishi mumkin. Hayotda bunday holatlar ko'plab uchraydi.

Bunday holatlarning yagona davosi - ilm va ma'rifatdir. Agar adashgan insonlarga ilmiy asosda, mantiqiy dalillar va tushunarli uslubda xatolarini tushuntira olsak, ularga hatto qurol berib, qotillikka buyruq berishsa ham, bu qabihlikka qo'l urmaydilar. Chunki biz ularni bunday jirkanch ishlarga undagan **asl sababni - johillikni yo'q qilgan** bo'lamiz.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

Shunday ekan, **diniy ta'limotlarni sof va haqqoniy shaklda ummatga taqdim etish**, noto'g'ri tushunchalarni ilm va ma'rifat orqali bartaraf etish yo'lida o'z hissamizni qo'shish maqsadida ushbu satrlarni bitildi.

Shu maqsadda, quyida ushbu muammoni savol-javob **uslubida tahlil qilib**, adashganlarga haqiqatni ko'rsatish va to'g'ri yo'lga qaytishlarida ko'maklashish hamda haqda bo'lganlarning qalbini yanada xotirjam qilishga harakat qilamiz. Shoyad, qilayotgan sa'y-harakatlarimiz kimningdir zalolatdan najot topishiga sabab bo'lsa.

ASOSIY QISM

Avvalo, **gunohlardan murod - til va a'zoldan sodir bo'ladigan amallar** ekanini aniq bilib olishimiz zarur. Ana shu amallar mo'minni imondan chiqarmasligini **ulamolarimiz aql, naql va ijmo** asosida mustahkam dalillar bilan bayon qilganlar. **Amal sababli kufr sobit bo'lmasligini** to'liq tushunish uchun esa, avvalo, **imonning haqiqatini anglashdan** boshlashimiz lozim. Chunki imon va amal o'rtasidagi bog'liqlikni to'g'ri tushunish, gunoh va kufr o'rtasidagi chegarani aniqlashda muhim omildir. Gunoh sababli kufrga hukm qilish masalasida Moturidiya va Ash'ariya mazhabi bir xil qarashga ega bo'lgani uchun ikki mazhab orasi ajratilmadi. Farqli o'rinlari esa bayon qilib ketildi.

1. Imon nima?

Imon lug'atda tasdiqlashdir. Yusuf alayhissalomning akalari otalariga aytganlaridek: **"Agar rostgo'y bo'lsak ham, sen bizga ishonmassan"**¹, yani: Bizni gapimizni tasdiqlovchi emassan².

Istelohey ma'nosi borasida ahli sunna ulamolari va mazhablari o'rtasida ixtilof bor. Ammo bu ixtilof voqelikda iymon va kufrga hukm qilishda ta'sir qilmaydi. Imon shar'iy istelohda: Allohning huzuridan kelgani aniq bo'lgan barcha narsalarda Nabiyy alayhissalomni qalb bilan umumiy tasdiqlash va til bilan iqror bo'lishdir³. Bu aksar

¹ Yusuf surasi 27-oyat.

Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi" kitobidan olindi.

² Doktor Hamza Bakriy. Ususul aqiyda al-islomiyya. – Urdun: Dorul foruq. 1440-2019. – B. 89.

³ Doktor Hamza Bakriy. Ususul aqiyda al-islomiyya. – Urdun: Dorul foruq. 1440-2019. – B. 89.

International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

Moturidiya ulamolarining ta'rifi bo'lib, unga ko'ra imonning ikkita rukni⁴ bo'ladi: **Tasdiq va iqrar**. Ya'ni shu ikkala rukn topilmasa imon bo'lmaydi. Ash'ariya mazhabi va ba'zi Moturidiya ulamolariga ko'ra til bilan iqrar bo'lish rukn emas balki dunyo ahkomlarini yurgazish uchun shart⁵ hisoblanadi. Shundan kelib chiqib imonda bitta rukn bo'ladi: Tasdiq. Asosiy mavzudan chalg'imaslik uchun ikkala mazhab ixtiloflari sabablari va dalillari tafsilotlariga kirishmadik. Chunki bu alohida mavzu hisoblanadi. Bahsimizga kerakli bo'lgan joyi har ikkala mazhabda ham amal imon ruknidan emasligidir.

2. Amal imondan emasligiga dalil bormi?

Albatta, bir qancha oyat va hadislar bunga dalolat qiladi:

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا تَوْبُوا إِلَى اللَّهِ تَوْبَةً نَّصُوحًا

Ey, iymon keltirganlar! Allohga xolis tavba qilinglar⁶! Birinchidan, tavba shar'iy istelohda ma'siyatdan toat(itoatsizlikdan itoatga)ga qaytishga aytiladi⁷. Ikkinchidan, tavba gunohi kabirada(kechirilishi uchun) shart qilinadi⁸. Gunohi sog'iralar uchun tavba shart qilinmaydi. Shundan ma'lumki oyatdagi tavbaga buyurilayotganlar gunohi kabira sohiblaridir. Katta gunoh sodir qilgan insonni Alloh Taolo mo'min deb nomlayapti. Demak, amal imondan emas ekan. Agar amal imon mohiyatiga kirganida edi Alloh Taolo ularga mo'minlar deb xitob qilmagan bo'lar edi.

وَإِنْ طَائِفَتَانِ مِنَ الْمُؤْمِنِينَ اقْتَتَلُوا فَأَصْلَحُوا بَيْنَهُمَا

Agar mo'minlardan ikki toifa urishib ketsalar, bas, o'rtalarini isloh qiling⁹. Urishish va qatl gunohi kabiralardan hisoblanadi. Bu oyatda ham Alloh Taolo gunohkorlarni mo'minlar ekanini aytmogda. Amal imondan emasligini ifodalovchi eng yorqin dalillardan biri:

وَمَنْ يَعْمَلْ مِنَ الصَّالِحَاتِ مِنْ ذَكَرٍ أَوْ أَنْتَىٰ وَهُوَ مُؤْمِنٌ فَأُولَٰئِكَ يَدْخُلُونَ الْجَنَّةَ وَلَا يُظْلَمُونَ نَقِيرًا

⁴ Amalning mohiyatiga kirib, uning yo'qligidan amalning ham yo'qligi kelib chiqadi. Masalan: Namozdagi sajda rukndir.

⁵ Amalning mohiyatiga kirmasada uning yo'qligidan amalning ham yo'qligi kelib chiqadi. Masalan: Tahorat namozning shartidir.

⁶ Ta'hrim surasi, 8-oyat.

⁷ Alloma Abdulaziz Farhoriy. Nibros ala sharhi aqoid. – Istanbul, Maktabatu Yosin: 1433-2012. – B. 485.

⁸ Abul Main Nasafiy. Bahrul kalom. – Damashq: Dorul farfur. 1421-2000. – B. 161.

⁹ Hujurat surasi, 9-oyat.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

Erkakmi, ayolmi – kim mo'min bo'lgan holda yaxshiliklar qilsa, ana o'shalar jannatga kirurlar va ularga qilcha ham zulm qilinmas¹⁰. Ushbu oyatda Alloh Taolo yaxshi amallarga imonni shart qilib qo'ydi. Shart bilan shart qilingan narsalarning boshqa-boshqa ekani hech kimga sir emas¹¹. Agar amal iymondan hisoblanganida edi, oyat bunday uslubda keltirilmagan bo'lar edi. Bu ma'nodagi oyati karimalar Qur'onda juda ko'p. Biz esa yuqoridagi oyatlar bilan kifoyalanamiz. Amal iymondan emasligiga hadislardan ham dalillar bor:

قال أبو ذر قال: أَتَيْتُ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ وَعَلَيْهِ ثَوْبٌ أبيض، وهو نائمٌ، ثُمَّ أَتَيْتُهُ وَقَدْ اسْتَبَقَطَ، فَقَالَ: مَا مِنْ عَبْدٍ قَالَ: لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ، ثُمَّ مَاتَ عَلَى ذَلِكَ إِلَّا دَخَلَ الْجَنَّةَ قُلْتُ: وَإِنْ رَأَى وَإِنْ سَرَّقَ؟ قَالَ: وَإِنْ رَأَى وَإِنْ سَرَّقَ قُلْتُ: وَإِنْ رَأَى وَإِنْ سَرَّقَ؟ قَالَ: وَإِنْ سَرَّقَ قُلْتُ: وَمَا لَكَ بِإِنْسَانٍ يَسْرِقُ وَيُرْجى؟ قَالَ: مَنْ عَمِلَ صَالِحًا وَكَانَتْ غَدْرَتُهُ كَمَا بَيْنَ يَدَيِ الْيَوْمِ وَاللَّيْلِ فَهُوَ مُرَجًّى. رواه البخاري ومسلم¹².

Abu Zar roziyallahu anhu aytib berdi: Nabiy sollallahu alayhi va sallamning oldilariga bordim. Egnilarida oq kiyim bor edi. U zot uxlab yotar edilar. Keyin kelsam, uyg'ongan ekanlar. Shunda u zot: **“Qaysi bir banda "Laa ilaaha illallah" desa, so'ng o'shanga binoan o'lsa, albatta jannatga kiradi”**, dedilar. **“Zino qilsa hammi? O'g'irlik qilsa hammi?”** dedim. **“Zino qilsa ham, o'g'irlik qilsa ham”**, dedilar. **“Zino qilsa hammi? O'g'irlik qilsa hammi?”** dedim. **“Zino qilsa ham, o'g'irlik qilsa ham”**, dedilar. **“Zino qilsa hammi? O'g'irlik qilsa hammi?”** dedim. **“Zino qilsa ham, o'g'irlik qilsa ham”**. So'ngra to'rtinchisida: **“Abu Zar xohlamasa ham”**, dedilar. *Buxoriy va Muslim rivoyati*. Ushbu hadisda amalsiz ham jannatga kirish mumkinligi aytilmoqda. Jannatga esa faqatgina imoni bor inson kirishi ma'lum. Amalsiz ham imon bo'lishidan amal imondan emasligi kelib chiqadi.

3. Amal imondan bo'lmasa "Imon - tasdiq, iqrор va amaldan iborat", deb aytgan Imom Shofe'iy kabi ahli sunna ulamolarining gaplarini qanday tushunamiz? Axir ularning gaplari amalni iymondan hisoblagan Xavorij va Mo'taziliylarning gaplari bilan bir xil-ku!

¹⁰ Niso surasi, 124-oyat.

¹¹ Abul Main Nasafiy. Bahrul kalom. – Damashq: Dorul farfur. 1421-2000. – B. 376.

¹² Alloma Abdulaziz Farhoriv. Nibros ala sharhi aqoid. – Istanbul, Maktabatu Yosin: 1433-2012. – B. 90.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

Haqiqatdan muhaddis, mutakallim va faqihlardan ko'plari shunday qarashda bo'lganlar. Masalan: Imom Shofe'iy va Imom Ahmaddan "Imon qalb bilan tasdiqlash, til bilan iqrar bo'lish va azolar bilan amal qilishdir", deganlari rivoyat qilingan¹³. Imomlarning gaplari ko'rinishidan Xavorij va Mo'tazililarning "Iymon - tasdiq, iqrar va amaldan iborat", degan gaplari bilan bir xil bo'lsa ham undan qasd qilingan ma'no butkul boshqadir. Chunki, ahli sunna ulamolari amalni imondan deganlarida komil iymonni nazarda tutganlar. Amalsiz imon yo'q bo'lib qoladi degan ma'noda emas. Ushbu ma'no ko'plab kitoblarda bayon qilingan bo'lib, jumladan "Zov'ul ma'oliy" asarida quyidagicha ifodalangan: "Ba'zi muhaqqiqlar aytganlaridek eng to'g'risi ularning murodlari amallar komil imonning ichiga kiruvchi ekanidir. Xavorij va Mo'tazililar aytganlaridek uning yo'qligi imonni yo'q qiladigan ma'noda emas¹⁴.

4. Ulamolarning gaplarini bunday ta'vil¹⁵ qilishingizga nima asos bor?

Bunday hukm berishimizning sababi amalni imonga qo'shgan ulamolardan birortasi gunoh sababli kufrga hukm qilmaganliklaridir. Masalan Imom Shofe'iydan shunday deganlari naql qilingan: "Fisq¹⁶ fosiqni imondan chiqarmaydi"¹⁷. Imomning yuqoridagi gaplari bilan hozirgi gaplarini yonma-yon qo'yilsa bir biriga zidlik yuzaga keladi. Katta bir imomning gaplari o'zaro zid bo'lishidan ko'ra aytgan gaplari to'g'ri ta'vil qilinsa masala hal bo'ladi. Bunday ta'vil qilinishiga aqliy va naqliy dalillar ham dalolat qiladi. Ahli sunna e'tiqodi ham shundaydir.

Ushbu tahlillardan Ash'ariy va Moturidiylarning amal imonga kirmasligi haqidagi gaplari bilan yuqoridagi ulamolarning qarashlari bir xil ekani ma'lum bo'ladi. O'rtadagi ziddiyat esa lafziy ixtilof¹⁸ hisoblanadi. Chunki imon tasdiq va iqrordan

¹³ Abu Hafs Sirojiddin Umar ibn Ishoq G'aznaviy Hindiy. Sharhu aqiydat al-Imom at-Tahoviy. – Qohira: Darat al-Karaz. 2009. – B. 120.

¹⁴ Aliy ibn Muhammad Al-Qoriy. Zov'ul ma'oliy sharhu bad'il amoliy. – Istanbul: Ikkinchi nashr. 1438-2017. – B. 130.

^{15 16} Lafzning zehnga birinchi keladigan haqiqiy manosidan boshqa bir majoziy manosiga burish. Y'ani imon tasdiq, iqrar va amaldan iborat degan gapning haqiqiy ma'nosi imonning uchta rukni borligi, shulardan birortasi topilmasa imon bo'lmasligidir. Ta'vilda esa haqiqiy ma'noni qo'yib, uchta narsadan biri bo'lgan amal yo'q bo'lsa ham imon yo'q bo'lmaydi deb aytish.

¹⁶ Fisq shari'at ahkomlariga amal qilmaslik. Fosiq shari'at hukmlarini bajarish lozimligini tan olib, ularni e'tirof etadigan, lekin ularning barchasiga yoki ayrimlariga rioya qilmaydigan musulmon kishi fosiq deyiladi.

¹⁷ Abu Hafs Sirojiddin Umar ibn Ishoq G'aznaviy Hindiy. Sharhu aqiydat al-Imom at-Tahoviy. – Qohira: Darat al-Karaz. 2009. – B. 120.

¹⁸ Ixtilof faqat lafzda bo'lib, o'sha lafzlardan bir-xil ma'no qasd qilingan bo'ladi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

iborat deyilganda uning haqiqati nazarda tutilgan. Tasdiq, iqror va amaldan iborat deyilganda imon haqiqati emas balki komil imon nazarda tutilgan. Lafzlarning turlicha bo'lishiga ba'zi omillar ta'siri bo'lgan xolos. Ammo Xavorij va Mo'tazililarga kelsak ular gaplarini haqiqiy ma'noda aytganlar va gunoh sodir qilgan mo'minni imondan chiqqanligiga ittifoq qilganlar. Bularning gaplari bilan ahli sunna ulamolarining gaplari orasidagi xilof ma'naviydir¹⁹. Ularning bunday ma'noni qasd qilganliklarini amaliyotga tatbiqidan bilib olamiz. Amaliyotda ular gunohkor insonni mo'min deb bilmaganlar. Chunki ular amalni imon ruknidan deb bilganlar. Masalan: "Mo'tazililar gunohi kabira sohibini mo'min ham kofir ham deb bilmaydilar. Ulardagi ikki manzil orasidagi manzil tushunchasi shundan kelib chiqqan. Xavorijlarda esa gunohi kabira sohibi balki gunohi sog'ira sohibi ham kofir hisoblanadi. Chunki ularda iymon va kufr o'rtasida vosita(manzil) yo'q"²⁰.

5. Ba'zi oyat va hadislarga nazar solsak gunohkor bandani iymonda bo'lmasligi xabari berilgan. Bu bizning yuqoridagi gaplarimizga butkul zid kelmaydimi?

To'g'ri, ba'zi oyat va hadislarda shunday holatlar bayon qilingan. Biz quyida shulardan faqat bitta oyat va hadisni keltiramiz. Chunki boshqa matnlarning ham hukmi shular bilan bir xil bo'lib, xulosa chiqarishga yetarli bo'ladi:

وَمَنْ لَمْ يَحْكَمْ بِمَا أَنْزَلَ اللَّهُ فَأُولَئِكَ هُمُ الْكَافِرُونَ

Kim Alloh nozil qilgan narsa ila hukm yuritmasa, o'shalar kofirlardir²¹.

Ma'lumki hukm qilish inson tarafidan bo'ladigan amaldir. Amalni tark qilish esa kufarga sabab bo'lmoqda. Oyatning zohiridan shu ma'no chiqmoqda.

وقوله عليه الصلاة والسلام: "لَا يَزْنِي الزَّانِي حِينَ يَزْنِي وَهُوَ مُؤْمِنٌ، وَلَا يَسْرِقُ السَّارِقُ حِينَ يَسْرِقُ وَهُوَ مُؤْمِنٌ، وَلَا يَشْرِبُ الْخَمْرَ حِينَ يَشْرِبُهَا وَهُوَ مُؤْمِنٌ" رواه البخاري ومسلم عن أبي هريرة رضي الله عنه²².

"Zinokor zino qilayotgan chog'ida mo'min bo'lmaydi. O'g'ri o'g'rilik qilayotgan chog'ida mo'min bo'lmaydi. (Xamr ichuvchi) xamr ichayotgan chog'ida mo'min bo'lmaydi", *Nabiy alayhissalomning ushbu hadislarini Buxoriy*

¹⁹ Ixtilof faqat lafzda emas balki ma'noda ham bo'lib, bir biridan boshqa ma'nolar qasd qilingan bo'ladi.

²⁰ Muhammad Yosir ibn Azizurrohman al-Hanafiy. Tahzibul arvoh an-Nasafiyya fi taysiri sharhul aqoidin Nasafiyya. – Britaniya: 1432-2010. – B. 115.

²¹ Moida surasi 44-oyat.

²² Alloma Abdulaziz Farhoriy. Nibros ala sharhi aqid. – Istanbul, Maktabatu Yosin: 1433-2012. – B. 488.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

va Muslim Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilganlar. Haqiqatdan hadisda gunoh sodir qilayotgan vaqtda imonni yo'q bo'lib qolishi ochiq aytilmoqda. Oyat va hadisning dalolatidan gunohlar imonni yo'qqa chiqarar ekan degan xulosaga kelish mumkin. Tarixda ayrim toifalar, xususan **Xavorij va Mo'tazililar**, aynan shu talqinni ilgari surganlar.

Biroq, **Ahli sunna val jamoa** bu masalaga boshqacha yondashgan. Ular oyat va hadislarning **zohiriy ma'nosini qabul qilmagan** va ularni chuqur tahlil qilgan holda talqin qilganlar. Ahli sunnaning yetuk ulamolari, oyat va hadislarni boshqa qat'iy dalillar va umumiy shari'at prinsiplariga muvofiq tushuntirib, gunoh sodir etish imonni butunlay yo'qqa chiqaradi degan xulosani rad etganlar.

Shu sababli, yuqoridagi oyat va hadislar **gunohlar mo'minni iymondan chiqaradi** degan da'voga qarshi qat'iy dalil bo'la olmaydi. Ahli sunnaning ushbu yondashuvi oyat va hadislarni yanada chuqurroq anglash, ularning asl maqsad va ruhini to'g'ri tushunish uchun ilmiy asosga tayanganligini ko'rsatadi.

6. Birinchidan, xohlagan oyat va hadisni olib xohlaganini inkor qilish dinni o'z nafsiga moslashtirish emasmi? Ikkinchidan, oyat va hadisni inkor qilish kufrga olib bormaydimi?

Savollar juda o'rinli bo'lib, diniga ixlosi bo'lgan har qanday insondan bunday e'tirozlar bo'lishi tabiiydir. Haqiqatdan ham, diniy matnlarni asossiz ravishda birini olib, boshqasini inkor qilish to'g'ri emas. Hech qanday asosli dalil bo'lmasdan turib oyat yoki hadislarning ma'nosini inkor qilish - ochiq-oydin zalolatdir. Chunki Qur'on va sunnat musulmonlarning e'tiqodi va amaliy hayotining poydevoridir.

Biroq, oyat va hadislarning ma'nosini tark etishga majbur qiladigan dalillar bo'lsa-chi? Bunday holatda, kimdir oyat yoki hadis ma'nosini o'z nafsu havosiga moslashtirmoqda, deyishimiz to'g'rimi? Albatta, yo'q. Chunki Ahli sunnaning yuqoridagi matnlarni qabul qilmasliklarining sababi ham aynan **dalillar majbur qilgani** uchundir. Ya'ni, ular shaxsiy fikr yoki xohish asosida emas, balki ilmiy asos va dalillarning talabiga binoan shunday yo'l tutganlar.

Ikkinchi e'tirozning tafsilotlariga chuqur kirishmagan holda shuni aytish mumkin: **Oyat va hadislarni inkor qilish, albatta, kufrga olib boradi.** Biroq, ulamolar hech qachon hadisni inkor qilmaganlar, balki hadisning **zohiriy ma'nosini** rad qilganlar. Bu ikki masala o'rtasida katta farq bor. Hadisning o'zi va uning zohiriy ma'nosini



inkor qilish bir xil emas. Zohiriy ma'noni tark qilish - agar bu qaror qat'iy dalillarga asoslangan bo'lsa nafaqat joiz balki vojib ham bo'ladi.

Naqlning (oyat va hadislarning) zohiriy ma'nosini dalillar taqozosiga ko'ra tark qilish — hech qanday bid'at, kufr yoki zalolat emas. Aksincha, bu yondashuv shari'at matnlarini chuqur anglash va ularni izchil talqin qilishda ilmiy asosga suyanishni anglatadi.

7. Yuqoridagi oyat va hadis gunohlar imondan chiqarib yuborishiga dalolat qilib turibdi. Nima uchun ularni ushbu masalaga dalil qilmayapsiz?

E'tiroz o'rinli. Chunki tashqaridan qaragan insonga shunday bo'lib ko'rinadi. Aslida esa vaziyat butunlay aksidir. To'g'ri yuqoridagi oyat va hadislarning zohiriy ma'nosi gunohlar imonga zid ekanini bildiradi. Ammo Qur'oni Karimdagi boshqa oyatlarning dalolatlari bu hukmni inkor qiladi. Shunday oyatlardan biri:

إِنَّ اللَّهَ لَا يَغْفِرُ أَنْ يُشْرَكَ بِهِ وَيَغْفِرُ مَا دُونَ ذَلِكَ لِمَنْ يَشَاءُ

Albatta, Alloh o'ziga shirk keltirilishini kechirmas. Undan boshqa gunohni, kimni bo'lsa, kechiradir²³. Ushbu oyatda shirk kechirilmas gunohligi, shirk darajasida bo'lmagan gunohlar esa kechirib yuborilishi mumkinligi ta'kidlanmoqda. Zino va o'g'rilik shirk emasligi barchaga ayon. Zino va o'g'rilikni imondan chiqaruvchi hamda jahannamda abadiy qolishga sabab bo'ladigan kechirilmas gunoh deb aytish yuqoridagi oyatga zid gapirish bo'ladi. Chunki oyatda kechirilmas narsa faqat shirk²⁴ ekanligi aytilmoqda.

8. Oyat va hadislar ma'nosi o'zaro zid kelib qolganda o'z gapingizni tasdiqlab kelgan matnlarni asl qilib, qolganlarini unga tobe qilmoqdasiz. Shuni aksi ham bo'lishi mumkin-ku. Yani gunohlar imondan chiqarishiga oid oyatlar asl bo'lib, qolganlari unga tobe bo'lsachi. Bunga nima deysiz.

To'g'ri, nazariy jihatdan bo'lishi mumkin. Biroq bu o'rinda bunday yondashuv o'rinli emas. Chunki oyat va hadislar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelganda, shari'atda qat'iy belgilangan qoida asosida qat'iy²⁵ ma'nodagi dalil muqaddam qo'yilib, zaif yoki zonniy²⁶ ma'nodagi dalil esa kuchlisiga moslashtiriladi. Bu qoidani ulamolar

²³ Niso surasi 48-oyat.

²⁴ Shirkdan murod kufrdir. Arab kofirlari mushrik bo'lganlari uchun shirk bilan ifodalanmoqda. (*Nibros*)

²⁵ Unda boshqa ma'noning ehtimoli aslo bo'lmasligidir.

²⁶ Nafsdan ikki ehtimoldan birini boshqasiga qat'iy bo'lmasdan ustun bo'lishidir.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

ming yillar avval ishlab chiqib, aniq tartib va tamoyillar asosida bayon qilib ketganlar. Shunday qilib, bu yondashuv aqliy va mantiqiy yechim hisoblanadi.

Mazkur qoida nafaqat diniy masalalarda, balki dunyoviy qonunchilik tizimlarida ham keng qo'llaniladi. Masalan, konstitutsiyaviy huquq sohasida agar Konstitutsiyadagi biror norma yoki qoidaga undan past darajadagi qonun yoki qarorlar zid kelib qolsa, har doim Konstitutsiya ustuvor hisoblanadi. Ya'ni, ziddiyat yuzaga kelganda yuqori maqomdagi qonun birinchi o'ringa qo'yilib, boshqa hujjatlar unga moslashtiriladi.

Xuddi shunday, shari'atda ham agar biror oyat yoki hadisning ma'nosi zonniy bo'lib, u qat'iy ma'nodagi oyat yoki hadisga zid kelib qolsa, unda qat'iy ma'nodagi oyat va hadislar asl va muqaddam hisoblanadi. Zonniy ma'nodagi oyat va hadislar esa ularga tobe qilinadi va ma'nosi muvofiqlashtiriladi.

Bu amaliyot mantiqan ham to'g'ri bo'lib, oyat va hadislarining martabasi va dalolat kuchidan kelib chiqib ularga amal qilinishini ta'minlaydi. Natijada, diniy matnlarning to'liq va izchil tushunilishi, shuningdek, hukmlarning to'g'ri chiqarilishi kafolatlanadi. Shu tariqa, shari'at hukmlarida ziddiyatdan holi, mukammal va muvozanatli yondashuv vujudga keladi.

9. Yuqoridagi oyat va hadisda qanday ehtimoliy ma'nolar bo'lishi mumkin?

Kim Alloh nozil qilgan narsa ila hukm yuritmasa, o'shalar kofirlardir.

Oyatning zohiriga ko'ra kim Alloh nozil qilgan narsa (oyat va hadislar) bilan hukm qilmasa ya'ni shu ishni qilmasa kofir bo'ladi. Bu ma'noda amal imondan chiqarib yuborayotgandek go'yo. Oyatning bu ma'nosi tark qilinadi. So'ngra qat'iy oyatlar ma'nosiga muvofiq ehtimoliy ma'nolarida tushuniladi. Ana shunday ehtimoliy ma'nolar quyidagicha:

- Hukmning yo'qligidan murod tasdiqning yo'qligidir, amalni emas. Ya'ni Alloh nozil qilgan narsani tasdiqlamaganlar kofirlardir;
- Mensimasdan ya'ni oyat va hadislar bugungi kunga yaroqli emas degan ma'noda hukm qilmasa;
- Qur'on va hadisni rad etgan holda Alloh nozil qilgan narsa ila hukm qilmasa;
- Oyat Yahudiylar haqida nozil bo'lgan. Tavrotdagi Alloh nozil qilgan Muhammad alayhissalomni tasdiqlash borasida hukm qilmaslik kufrdir.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

- Oyatdagi kufrdan murod kichik kufr(gunohi kabira)dir ya'ni Alloh nozil qilgan narsa ila hukm qilmasa gunohi kabira qilgan bo'ladi;

- e'tiqod qilgan, halol sanagan holda hukm qilmasa kofirdir. Ammo harom degan e'tiqod bo'lgan holda hukm qilmasa u fosiqdir;

“Zinokor zino qilayotgan chog'ida mo'min bo'lmaydi. O'g'ri o'g'rilik qilayotgan chog'ida mo'min bo'lmaydi. (Xamr ichuvchi) xamr ichayotgan chog'ida mo'min bo'lmaydi”. Ushbu hadisi sharifga ulamolarimiz tomonidan bir qancha ehtimoliy ma'nolar aytilgan:

- Aslida hadis bu gunohlardan saqlanish va yaqiniga ham bormaslik uchun tahdid qilib aytilgan;

- Hadisda asliy iymon emas, balki komil iymon nazarda tutilgan;

- Undan iymonning nuri su'g'urib olinadi, asli qolgan bo'ladi;

- Agar kishi shu ishlarda bardavom bo'lsa, borib-borib iymonidan ham ajrab qoladi;

- Zinokor zinoni qilayotgan vaqtida iymonini zehniga keltirmay turgan bo'ladi;

- Agar shu ishlarni halol sanab qilsa mo'min bo'lmaydi. Chunki haromni halol deyish kufr.

Yuqoridagi ehtimoliy ma'nolar mavjudligi sababli, oyat va hadisning dalolatini qat'iy deya olmaymiz. Zonniy dalolat asosida esa kufrga hukm chiqarish to'g'ri emas. Shari'atimizda biror kishini kufrga hukm qilish uchun mustahkam va qat'iy dalil talab qilinadi. Chunki qat'iy masalalarda faqat qat'iy dalillarga tayaniladi. Agar masala zonniy bo'lsa, uni hal qilishda zonniy dalillar ham kifoya qilishi mumkin. Shuning uchun zonniy dalolatlar asosida kufrga hukm chiqarish shari'at ko'rsatmalariga zid hisoblanadi.

Yuqoridagi savol va javoblar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, **amal imondan emas**. Bu esa gunohlar sababli hech bir mo'minni kufrga hukm qilish mumkin emasligiga **aqliy dalildir**. Amalning yo'qligi imonning yo'qligini anglatmaydi, xuddi imonning borligi amal ham borligini anglatmagani kabi.

Boshqa aqliy dalillardan biri shuki, shari'atimizda zinokor va o'g'riga ma'lum jazolar belgilangan. Agar ushbu gunohlarni sodir etgan shaxslar iymondan chiqqan deb hisoblanganida, ularga murtadlik (dindan qaytish) hukmlari qo'llanilgan bo'lardi. Bunday jazolarning qo'llanilmagani gunohkor kishi hali ham islom doirasida ekanligiga dalolat qiladi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

Bundan tashqari, amal va imon o'rtasidagi farqni ochib beradigan oyat va hadislar **naqliy dalillar** sifatida xizmat qiladi. Ushbu naqliy dalillar aqliy dalillar bilan uyg'unlashib, bir-birini to'ldiradi va tasdiqlaydi.

10. **Gunohlar mo'minni imondan chiqarmasligi borasida ijmoda nima deyilgan?**

Musulmon ummati mo'mindan boshqasiga janoza, istig'for va duo qilinmasligiga ittifoq qilishgandan keyin, Nabiy alayhissalom asridan bugungi kunimizgacha ahli qibladan birortasi tavbasiz vafot etsa, uning gunohi kabira qilganini bilib tursalar ham unga janoza namozi o'qilishiga, uning haqqiga istig'for aytib, duo qilinilishiga ijmo qilgan²⁷. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki gunohlar imondan chiqarmas ekan. Imondan chiqarib yuborganida janoza o'qib, haqqiga istig'for aytish mumkin bo'lmay qolar edi.

11. **Ahli sunnaning aqida kitoblarida bu borada nima deyilgan?**

Ulamolarimiz tomonidan omma musulmonlar osongina qiynalmay tushinishlari hamda zehnlari yodlab olishlari uchun aqidaviy masalalar qisqa va lo'nda shaklda bitib qo'yilgan. Quyida Moturidiya mazhabida yozilgan mashhur matnlardagi mavzuimizga tegishli joylaridan ba'zi namunalarni keltirib o'tamiz.

Abu Hanifa rohmatallohi alayhi "Fiqhul akbar" kitobida:

وَلَا نُكَفِّرُ مُسْلِمًا بِذَنْبٍ مِنَ الذُّنُوبِ وَإِنْ كَانَتْ كَبِيرَةً إِذَا لَمْ يَسْتَحِلِّهَا وَلَا نُزِيلُ عَنْهُ إِسْمَ الْإِيمَانِ وَنُسَمِّيهِ مُؤْمِنًا حَقِيقَةً، وَيَجُوزُ أَنْ يَكُونَ مُؤْمِنًا فَاسِقًا غَيْرَ كَافِرٍ

Musulmonni biror gunoh tufayli kofirga chiqarmaymiz, garchi katta gunoh bo'lsa ham, modomiki, uni (gunoh qilishni) halol sanamagan bo'lsa. Undan iymon ismini ham olib tashlamaymiz, uni haqiqiy mo'min deb ataymiz. Kofir bo'lmasdan fosiq mo'min bo'lishi ham joiz bo'ladi²⁸.

Imom Tahoviy rohmatallohi alayhi "Aqidatut Tahoviya" asarida:

وَلَا نُكَفِّرُ أَحَدًا مِنْ أَهْلِ الْقِبْلَةِ بِذَنْبٍ، مَا لَمْ يَسْتَحِلِّهَا.

Ahli qibladan hech kimni biror gunoh sababli kofirga chiqarmaymiz, modomiki uni halol sanamagan bo'lsa²⁹.

Imom Nasafiy "Aqoidun Nasafiya" matnida:

²⁷ Sa'duddin Taftazoniy. Sharhu aqid Nasafiyya. – Dimashq: Dorut taqvo. 1441-2020. – B. 259.

²⁸ Abdulqodir Abdur Rahim. Mashhur aqid matnlari. – Toshkent: Shamsuddinon Boboxonov. 2024. – B. 25.

²⁹ Abdulqodir Abdur Rahim. Mashhur aqid matnlari. – Toshkent: Shamsuddinon Boboxonov. 2024. – B. 79.



وَالْكَبِيرَةُ لَا تَخْرُجُ الْعَبْدَ الْمُؤْمِنَ مِنَ الْإِيمَانِ وَلَا تَدْخُلُهُ فِي الْكُفْرِ

Gunohi kabiralar mo'min bandani imondan ham chiqarmaydi, kufrga ham kirgizmaydi³⁰.

وَلَا يُفْضَى بِكُفْرٍ وَارْتِدَادٍ، بَعْهَرٍ أَوْ بِقَتْلِ وَاخْتِرَالٍ

Zino yo qatl va bosqinchilik tufayli kufrga ham murtadlikka ham hukm qilinmaydi³¹. E'tibor bersak barcha matn kitoblarida gunoh imondan chiqishga sabab bo'lmashligi takidlanmoqda. Ulamolarimiz adashgan toifalar bilan bo'lib o'tgan uzoq bahslardan so'ng oddiy musulmonlar ularning da'volariga uchib ketmasliklari uchun ushbi aqidani kitoblariga kirgizishga majbur bo'lganlar. Har bir matnning ostida juda katta ilmiy izlanishlar bo'lib, biz ularni faqat bir qismini misol tariqasida keltirdik xolos.

12. Yuqorida bayon qilinganlardan xulosa sifatida “Gunohlar mo'minga zarar bermas ekan”, deb aytsa bo'ladimi?

Bunday o'ylash to'g'ri emas. Gunohlar mo'minni imondan chiqarmasligi qanchalik haq bo'lsa, ularning mo'minga zarar yetkazishi ham shunchalik haqiqatdir. Gunohlarning imonga zarari yo'qligi aytilgan bo'lsa-da, hech bir joyda gunohlarning butunlay zararsizligi haqida so'z yuritilmagan. Shu bois, bu ikki hukm o'rtasidagi farqni aniq ajratib olish zarur.

Agar mo'min farzlarni bajarmasa va harom ishlardan tiyilmasa, bu uning oxiratda azoblanishiga sabab bo'ladi. Bizning mavzu imondan chiqish masalasiga oid bo'lgani uchun asosan shu haqdagi bahslarni ko'rib chiqdik. Biroq bu, gunohlarning umuman zarar keltirmaydi degan noto'g'ri tushunchaga olib kelmasligi lozim.

Tarixda Murjia toifasi aynan mana shunday noto'g'ri qarashda bo'lgan. Murjia firqasi: “Kofirga toat naf bermaganidek, mo'minga gunoh zarar bermaydi”, degan e'tiqodda bo'lgan³². Ya'ni, ularning fikricha, kofir kishi qancha yaxshilik va savobli ishlarni qilmasin, oxiratda bu amallari unga foyda bermaydi va u abadiy do'zaxga mahkum qilinadi. Shu asosda ular mo'minning gunohlarini ham xuddi shunga o'xshatib, imoni borligi sababli gunohlari unga zarar yetkazmaydi, degan noto'g'ri e'tiqodga kelishgan.

³⁰ Abdulqodir Abdur Rahim. Mashhur aqid matnlari. – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov. 2024. – B. 20.

³¹ Abdulqodir Abdur Rahim. Mashhur aqid matnlari. – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov. 2024. – B. 156.

³² Abdulqodir Abdur Rahim. Mashhur aqid matnlari. – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov. 2024. – B. 27.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

Bu masala aqida kitoblarida ham alohida ta'kidlab o'tilgan. Jumladan, **“Fiqh ul-Akbar”** matnida ham bu borada aniq izohlar keltirilgan:

وَلَا تَقُولُ: إِنَّ الْمُؤْمِنَ لَا تَضُرُّهُ الذُّنُوبُ وَلَا تَقُولُ إِنَّهُ لَا يَدْخُلُ النَّارَ وَلَا تَقُولُ إِنَّهُ يَخْلُدُ فِيهَا، وَإِنْ كَانَ فَاسِقًا بَعْدَ أَنْ يَخْرُجَ مِنَ الدُّنْيَا مُؤْمِنًا. لَا تَقُولُ: إِنَّ حَسَنَاتِنَا مَقْبُولَةٌ وَسَيِّئَاتِنَا مَغْفُورَةٌ كَقَوْلِ الْمُرْجَةِ.

Mo'minga gunohlar zarar bermaydi demaymiz va mo'min do'zahga kirmaydi ham demaymiz, mo'min banda agarchi fosiq bo'lsa ham, modomiki dunyodan mo'min holidi o'tgan bo'lsa, do'zahda abadiy qoladi deb ham aytmaymiz. Shuningdek, murjia firqasi kabi: “Savoblarimiz qabul qilingan va gunohlarimiz kechirilgan” ham demaymiz³³.

“Aqidatut Tahoviya” matnida:

وَلَا تَقُولُ: لَا يَضُرُّ مَعَ الْإِيمَانِ ذَنْبٌ لِمَنْ عَمِلَهُ.

Biz: Imon bilan bo'lganda biror gunoh uni sodir etuvchisiga zarar bermaydi, deb aytmaymiz³⁴.

Yuqoridagi matnlardan ulamolarimiz har bir masalani eng nozik jihatlarigacha o'rganib, musulmonlar toyilishi mumkin bo'lgan o'rinlarni batafsil bayon qilganlaridan so'ng qisqa va lo'nda iboralarda ifodalab berganlarini anglashimiz mumkin.

Bahsimizning avvalida amal imonga kirmasligi aytilganidan “amalning hech qanday foydasi yo‘q ekan” degan xato tushuncha tug‘ilmasligi kerak. Chunki amalni imonga kiritmagan ulamolarning eng buyuklaridan biri — Imom A‘zam Abu Hanifa hazratlaridir. Agar ular amallarning foydasi yo‘qligini bilganlarida, butun umrlarini fiqh ilmiga bag‘ishlamagan bo‘lar edilar. Ma‘lumki, fiqh ilmi asosan amallarni o‘rganadi. Imom A‘zam esa amallarga bevosita bog‘liq bo‘lgan fiqh ilmida yirik bir mazhabga asos soldilar. U zot faqat ilmiy bahs doirasida haqiqatni bayon qilish va har narsaga o‘z hukmini berish uchun amallarni imon mohiyatiga kiritmaganlar.

Ahli sunna ulamolarining ko‘plari amalni imondan deb hisoblaganlarida ham, bu amalning ahamiyatini chuqur anglaganliklari va faqat imon bilan to‘liq najot topish mumkin emasligini bilganliklari sababli shunday qilganlar. Ya’ni, har ikki toifaning ham fikrlarida muayyan maqsadlar mujassam: Imom A‘zam Abu Hanifa zamonida Xavorij va Mo‘tazila firqalari fitnasi eng avjiga chiqqan edi. Xavorijlar nazarida:

³³ Abdulqodir Abdur Rahim. Mashhur aqid matnlari. – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov. 2024. – B. 26.

³⁴ Abdulqodir Abdur Rahim. Mashhur aqid matnlari. – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov. 2024. – B. 80.



“Amalni tark qiluvchi imondan chiqadi va kofir bo‘ladi”. Mo‘tazililar nazarida esa: *“Amalni tark qiluvchi kofirga aylanmaydi, lekin u ikki manzil o‘rtasidagi holatda qoladi”.* Shuning uchun Imom Abu Hanifa ularga raddiya sifatida va amalni tark qilgan kishi ham mo‘min holida qolishini ko‘rsatish uchun imonni amalsiz ta’riflaganlar. Boshqa tomondan, Imom Shofe’iy, Imom Ahmad ibn Hanbal va boshqa faqihlar zamonida esa Murji’a firqasining fitnasi avj olgan edi. Ular shunday deydilar: *“Imonning o‘zi najot uchun kifoya qiladi; toatlarning foydasi va gunohlarning zarari yo‘q”.* Shu sababli, bu faqihlar ham ularga raddiya sifatida va mo‘minning najoti uchun amallar ham zarurligini ta’kidlash uchun imon ta’rifida amalni rukn sifatida e’tiborga oldilar³⁵.

13. Diniga ixlosi, qur’on va hadislarga muhabbati bo‘lgan oddiy musulmon nima qilishi kerak?

Oyat va hadislarga amal qilish — musulmonchilikning, Islomga rioya qilishning va shariatimiz ko‘rsatmalarining ajralmas qismidir. Buni hech kim inkor eta olmaydi. Ayniqsa, diniga ixlosi bor musulmon kishi har bir eshitgan va bilgan oyat va hadislariga amal qilishga intiladi.

Biroq, shar’iy me’yorlarni va dalillarning darajasini bilmaslik natijasida, qanday amal qilish borasida yetarli ko‘nikmaga ega bo‘lmasligi mumkin. Shariatning bitta hukmiga to‘g‘ri amal qilish uchun shu boradagi barcha oyat va hadislardan xabardor bo‘lish, ularni jamlab, qanday xulosa chiqarishni bilish zarur. Buning uchun esa arab tilini mukammal bilishdan boshlab, juda ko‘plab shar’iy ilmlarni chuqur o‘rganish lozim.

Har bir musulmonning esa bunday bilimlarni egallashga imkoniyati bo‘lavermaydi. Chunki ularning o‘z ishlari, kasb-korlari bor. Bunday vaziyatda eng to‘g‘ri yechim - **shar’iy bilimlarda mutaxassis bo‘lgan, soha vakillari tomonidan e’tirof etilgan ulamolarning ko‘rsatmalariga amal qilishdir.**

Bu holat faqat diniy masalalargagina xos emas, balki boshqa sohalarda ham xuddi shunday qoida amal qiladi. Misol uchun:

³⁵ Muhammad Yosir ibn Azizurrohman al-Hanafiyy. Tahzibul arvoh an-Nasafiyya fi taysiri sharhul aqoidin Nasafiyya. – Britaniya: 1432-2010. – B. 128.



Tibbiyot sohasidagi mutaxassis uy qurishda **qurilish sohasining vakillari** maslahatiga tayanishga majbur. Agar tabib qurilish bo'yicha mutaxassislarning fikrini inobatga olmay, o'zi bilgan yuzaki ma'lumotlar asosida yoki yetarli tajribaga ega bo'lmagan quruvchining maslahatiga amal qilib uy qursa, kim uni to'g'ri ish qilmoqda deya oladi?

Xuddi shuningdek, **quruvchi** ham og'ir kasallik yuzaga kelganida o'z bilganlari yoki tibbiyotni to'liq o'rganmagan odamning maslahatiga tayanib davolansa, buning natijasi qanday bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas.

Oddiyroq masalalarda xatolarning oqibatlari yengil bo'lishi mumkin. Masalan, qurilishda asosiy qismlar to'g'ri qurilib, bezak ishlari xato qilinsa, uni tuzatish nisbatan oson. Ammo asosiy konstruksiyada xato qilinsa, uyni buzib qayta qurmaguncha uni to'g'rilab bo'lmaydi. Shuningdek, quruvchi ham oddiy shamollashni oson davolashi mumkin, lekin jiddiy jarohat, masalan, oyog'ini sindirib olsa, "o'zim davolayman" desa, noto'g'ri muolaja tufayli bir umrga nogiron bo'lib qolishi hech gap emas.

Diniy sohada ham xuddi shu qoida amal qiladi. Bu sohaga umrini bag'ishlagan, haq yo'ldagi robboniy ulamolarning ko'rsatgan yo'lidan yurish - eng to'g'ri va ishonchli yo'ldir. Ulamolarning bilim va tajribasiga tayanish orqali inson adashmaydi va maqsadga osonlik bilan yetadi.

Yuqorida muhokama qilingan kufr masalasi ham o'ta jiddiy masala hisoblanadi. Diniy masalalarning boshqa sohalardan asosiy farqi shundaki, xato qilinganining oqibatini bu dunyoda ko'rmasligi mumkin. Bu esa insonni o'zini xato qilmagandek, to'g'ri yo'lda yurgandek his qilishga olib kelishi mumkin. Biroq, aniq dalillarga ega bo'lmasdan, shunchaki gumon bilan ish tutish xavfli.

Aslida, dunyoda to'g'ri yo'lda ekanini aniq bilmasligi insonni ulamolarga ergashishga undashi lozim. Bu esa, "qaysi yo'l to'g'ri ekanini bu dunyoda bilishning imkoni yo'q" degan xulosa chiqarish kerak degani emas. **Haq va botil, to'g'ri va noto'g'ri yo'lni bilish imkoniyati albatta mavjud.** Faqat buning uchun Qur'on va hadislarni chuqur o'rganish, shar'iy bilimlarni mukammal egallash talab etiladi.

Shu bois, bu sohaga umrini bag'ishlagan ulamolarga ergashish - insonni adashishdan saqlaydigan eng ishonchli yo'ldir. Nihoyat, masalaning yechimi yana ilmga taqaladi.

Jamiyatdagi muammo va ixtiloflarning asosiy sababi ham - ilmsizlikdir.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda: Shirk va kufrga olib bormaydigan gunohlarni sodir etish, agar insonning e'tiqodi sog'lom va halol bo'lsa, uni iymondan chiqarib yubormaydi va kufrga kiritmaydi. Islom aqidasiida gunohkor mo'min, iymonini yo'qotmagan holda, tavba qilish va Allohning rahmatidan umidvor bo'lishga chaqiriladi. Biroq bu, gunohlarni yengil olish yoki ularga beparvo bo'lishga asos bermaydi. Har bir mo'min o'z amallarini doimo tahlil qilib, tavba va istig'for bilan qalbini poklab turishi lozim.

Shuningdek, Qur'on oyatlari yoki hadislardan birini alohida olib, uning to'liq mazmun va ma'nosini tushunmasdan hukm chiqarish - katta xatolik va johillik sanaladi. Din ilmlari chuqur va murakkab bo'lib, biror hukm chiqarishda Qur'on va hadislarining umumiy mazmunini, ularning nozil bo'lish sabablarini, shuningdek, ulamolar tomonidan berilgan sharh va tafsirlarni mukammal bilish zarur. Aks holda, bilmagan holda boshqa oyat va hadislar mazmuniga zid fikr yuritib qo'yish xavfi tug'iladi. Bu esa nafaqat shaxsiy xato, balki boshqalarning ham noto'g'ri yo'lga kirib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Din masalalarida hukm chiqarish - katta mas'uliyat talab qiladigan ishdir. Bitta hukm aytish uchun Qur'on va hadislarini, ularning nozil bo'lish sabablarini, tafsir va sharhlarini, shuningdek, fiqh va aqida masalalarini chuqur bilish talab etiladi. Bunday chuqur bilim va tushunchaga esa hammada ham imkon bo'lavermaydi. Shuning uchun biz o'z kasbimiz va kundalik hayotdagi vazifalarimiz bilan mashg'ul bo'lib, murakkab diniy masalalarni ulamolarga havola qilishimiz eng to'g'ri va adolatli yo'ldir.

Har bir mo'min diniy masalalarda mustaqil hukm chiqarishdan tiyilishi, Qur'on va sunnatga asoslangan to'g'ri yo'lni topishda ishonchli ulamolarimizga ergashishi lozim. Zero, haqiqiy najot va to'g'ri yo'l - Allohning kalomi va Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam sunnatiga qat'iy rioya qilish hamda bilimdon ulamolarning yo'l-yo'riqlarini izchil tutishda bo'ladi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Doktor Hamza Bakriy. Ususul aqiyda al-islomiyya. – Urdun: Dorul foruq. 1440-2019.
2. Alloma Abdulaziz Farhoriy. Nibros ala sharhi aqid. – Istanbul, Maktabatu Yosin: 1433-2012.
3. Abul Main Nasafiy. Bahrul kalom. – Damashq: Dorul farfur. 1421-2000.
4. Abdulqodir Abdur Rahim. E'tiqod durdonalari. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot matbaa ijodiy uyi. To'ldirilgan 3-nashri. 2020.
5. Abu Hafs Sirojiddin Umar ibn Ishoq G'aznaviy Hindiy. Sharhu aqiydat al-Imom at-Tahoviy. – Qohira: Darat al-Karaz. 2009.
6. Aliy ibn Muhammad Al-Qoriy. Zov'ul ma'oliy sharhu bad'il amoliy. – Istanbul: Ikkinchi nashr. 1438-2017.
7. Muhammad Yosir ibn Azizurrohman al-Hanafiy. Tahzibul arvoh an-Nasafiyya fi taysiri sharhul aqoidin Nasafiyya. – Britaniya: 1432-2010.
8. Muhammad Muoz Mustafo al-Xon. Al-Qot'iyyu vaz zonniyyu fis subuti vad dalolati inda usuliyyin. – Dimashq: Dorul kalimit toyyib. 1428-2007.
9. Sa'duddin Taftazoniy. Sharhu aqid Nasafiyya. – Dimashq: Dorut taqvo. 1441-2020.
10. Abdulqodir Abdur Rahim. Mashhur aqid matnlari. – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov. 2024.